9. S.A. Tursınbaev, M.O. Tajetdinova. Yarimo‘tkazgich materiallarning tenzoelektrik xususiyatlari // International scientific and practical conference modern, innovative development of exact and natural sciences in higher education november 15, 2024, pp. 68-70

10. С. А. Турсынбаев, Влияние одноосного точечного радиального давления и температуры на кремний с нанокластерами атомов марганца // International scientific and practical conference modern, innovative development of exact and natural sciences in higher education november 15, 2024, pp. 9-12.

11. S.A. Tursinbaev. Influence of Illumination and Temperature on Tenso Properties of Silicon with Nanoclusters of Manganese Atoms // Semiconductors, 2022, Vol. 56, No. 6., https://www.researchgate.net/profile/Sabyrbaj-Tursynbaev/publication/367563720_Influence_of_Illumination_and_Temperature_on_Tenso_Properties_of_Silicon_with_Nanoclusters_of_Manganese_Atoms/links/641e021892cfd54f8428c502/Influence-of-Illumination-and-Temperature-on-Tenso-Properties-of-Silicon-with-Nanoclusters-of-Manganese-Atoms.pdf.

12. С.А. Турсынбаев, А.Б. Камалов, Х.М. Илиев, С.А. Тачилин, Г.А. Кушиев. Тензосвойства кремния с нанокластерами. // Физика полупроводников и микроэлектроника. 2019, том 1, вып. 4, С.62–67.

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

УДК: 631.68.35.29.37

ЛАЛМИКОР МАЙДОНЛАРДА ТУРЛИ МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАРНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ.

***И.Ш.Маматкулов*[1],**
***А.С.Мураткасимов*[1],**
***Р.О.Қурбонов*[2]**
Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институти[1].
Қарши давлат университети[2].
*e-mail:*uzniizerno@yahoo.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасининг лалмикор майдонларида фосфорли ва калийли ўғитлар турига, меъёрига қараб кузги буғдой намлик ва озиқлантириш тартиботи ҳамда ҳосилдорлигига таъсирини ўрганиш бўйича тажриба натижалари келтирилди.*

Калит сўзлар: *Лалмикор ерлар, алмашлаб экиш, органик ва маъданли ўғитлар, илдиз орқали озиқлантириш, тупроққа ишлов бериш, агротехнологиялар, гумус, қўшимча ҳосил, самарадорлик.*

Аннотация: *В данной статье представлены результаты эксперимента по изучению влияния фосфорных и калийных удобрений на влажность и питание озимой пшеницы в зависимости от сорта и нормы на засушливых участках Республики Узбекистан.*

Ключевые слова: *Богарь, севооборот, органические и минеральные удобрения, корневая подкормка, обработка почвы, агротехнологии, перегной, дополнительные культуры, продуктивность.*

Abstract: *This article presents the results of an experiment to study the effect of phosphorus and potassium fertilizers on the moisture and nutrition of winter wheat depending on the variety and rate in arid areas of the Republic of Uzbekistan.*

Key words: *dry farming, crop rotation, organic and mineral fertilizers, root feeding, soil cultivation, agricultural technologies, humus, additional crops, productivity.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси ўзига хос тупроқ-иқлим шароитларига эга бўлган лалмикор майдонларида органик ва минерал ўғитлардан самарали фойдаланиш бошоқли дон, дуккакли, мойли ва бошқа қишлоқ хўжалик экинларидан барқарор юқори ва сифатли ҳосил

етиштиришга, тупроқ унумдорлиги ва унинг структурасини яхшилашга имкон беради.

Кўп сонли тажрибалар натижаларига кўра, Ўзбекистоннинг барча лалмикор майдонларида сўнгги ўн йиллар давомида иқлимнинг глобал ўзгариши ва антропоген омиллар таъсирида тупроқдаги органик ва минерал озиқа моддалар миқдорининг камайиши структурасининг чуқур деградацияга учрашига олиб келмоқда. Бу майдонларда минерал ўғитлар самарадорлиги асосан атмосфера ёғингарчиликлари миқдорига, тупроқнинг намланиш чуқурлиги, ўтмишдошлар турига агротехникасига ва бошқа кўплаб омилларга қараб ўзгаради.

Лалмикор ерларнинг ёғингарчилик билан ярим таъминланган (280-360 мм) қир-адирлик минтақасида олиб борилаётган тажрибаларига кўра тупроққа плуглар билан 20-22 см чуқурликда интенсив ишлов берилиши ҳамда органик ва минерал ўғитлар берилмайдиган вариантларда тупроқдаги органик моддалар (гумус) миқдори 1,2-1,3 % дан 0,58-0,65 % га (0-20 см) камайиши кузатилмоқда [1,2,3,4,6].

Кейинги бир неча ўн йиллар давомида илмий асосланган деҳқончилик тизимлар ўрнига сурункасига ғалла экинлари экилиши, бир йиллик ва кўп йиллик дуккакли дон, ем-хашак ва бошқа экинлар майдонининг қисқариб кетиши, маҳаллий ҳамда маъданли ўғитлардан, ўсимликларни ҳимоя қилиш воситаларидан етарлича фойдаланмаслик оқибатида ҳосилдорлик ва унинг сифатининг пасайишига олиб келмоқда. Бу эса ўз навбатида тупроқ унумдорлигининг пасайиши ва структурасининг бузилишига, унда шамол ва сув эрозиясининг кучайишига қулай шарт-шароитлар туғдирмоқда.

Г.А.Лавронов [1] лалмикор ерларнинг нам билан ярим таъминланган минтақасида бир йил давомида тоза шудгорга 2-3 марта ишлов берилиши натижасида тупроқдаги гумус миқдори гектарига 1,2 тоннага камайишини тадқиқотларда аниқлаган.

Ёғин-сочин билан ярим таъминланган лалмикор ерларда ўғитлар меъёри 40 кг/га азот, фосфор, тоғолди ва тоғли майдонларда бу ўғитлар меъёрини 50 кг/га, серёғин келган йилларда (400-600 мм) эса 60 кг/гача (соф таъсир этувчи модда ҳисобида) бериш ҳосилдорликни ўртача 4-5 центнерга ошириш имконини беради [2].

Тадқиқотларни ўтказишдан асосий мақсад лалмикор майдонларда юқори самарадор, экологик хавфсиз янги азотли ва фосфорли ўғитларни қўллашнинг мақбул муддат ва меъёрларини аниқлаш ҳамда уларнинг ғалла

ҳосилига, дон сифатига, тупроқнинг агрокимёвий таркибига таъсирини ўрганишдан иборат.

Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институтининг марказий тажриба хўжалигидаги лалмикор тупроқлар шароитида қўйилди. Бу тажриба хўжалиги лалмикор ерларнинг ёғингарчилик билан ярим таъминланган текислик қир-адирлик минтақасида денгиз сатҳидан 580 м баландликда жойлашган бўлиб, тупроғи типик лалмикор бўз тупроқлардан иборат. Тажриба даласи тупроқлари ўртача қумоқли, сув ва шамол эрозиясига ўртача чалинган бўлиб, уларнинг ҳайдов қатламида (0-20 см) 0,55-0,88 % гумус, умумий азот 0,18-0,20 %, фосфор 0,16-0,18 % ва 1,6-1,8 % ялпи калий бўлиб, тупроқ муҳити (pH) 7,0 ни ташкил этади. Ер ости сувининг минераллашганлиги 4-8 г/л бўлиб, сизот сувлари 10 м дан пастда жойлашган, тупроқ ҳосил бўлиши жараёнларига деярли таъсир этмайди [3,4].

Дала тажрибаларда таркибида 49,5 фосфор ва 11 % азот сақлайдиган аммофос (андоза), 24 % фосфор бўлган суперфос ва 40 % фосфор мавжуд PS-агро каби маъданли ўғитлар самарадорлиги аммиакли селитра, карбамид, аммоний сульфатли азотли ўғитлар билан биргаликда қўллашнинг самарадорлиги ўрганилди.

Материал ва методлар. Дала тажрибада олинган экспериментал натижалар Б.А.Доспеховнинг “Методика полевого опыта” услуби [5] асосида дисперцион таҳлилдан ўтказилди.

Тажрибада кузги буғдой етиштириш бўйича бажарилган барча агротехнологик тадбирлар Ўзбекистон “Ғалла” ИИЧБ (ҳозирги ДДЭИТИ Ғаллаорол ИТС) томонидан ишлаб чиқилган агротавсиялар [6] асосида бажарилди.

Натижалар ва уларнинг таҳлили. Дала майдонида 13 та вариант, 3 қайтариқли, майдончалар ҳажми 75 м^2 ни ташкил этди. Бу дала тажрибада “Бахмал-97” юмшоқ буғдой нави 120 кг/га (гектарига 2,5-3 млн дона тўлиқ унувчан уруғ) ҳисобида экилди. Барча вариантларда маъданли ўғитлар қўлда сочиб берилди.

Тадқиқотлар олиб борилган йилларда буғдойнинг ўсиш ва ривожланиш даврлари назорат (ўғитсиз) вариантига нисбатан озиқа ва намликнинг етарли бўлиши натижасида ўғитланган вариантларда 2-4 кунга чўзилиши қайд этилди.

Юқорида қайд этилганидек, лалмикор майдонларда ўғитларнинг самарадорлиги асосан тупроқ намлиги динамикасига узвий боғлиқ ҳолда ўзгаради.

Ушбу тажрибада тупроқдаги намлик тартиботи “Бахмал-97” юмшоқ буғдой навининг экиш олдидан, туплаш, найчалаш, бошоқлаш ва тўлиқ пишиш босқичларида асосий (калитли) вариантларда ўрганилди. Жумладан, “Бахмал-97” буғдой навининг туплаш даврига келиб турли вариантлардаги тупроқнинг 0-20 см қатламидаги намлик 8,6-10,8 % ни (220,2-275,6 м^3/га), 0-100 см қатламдаги жами намлик заҳираси ўртача 12,6 % (1683,6 м^3/га) дан 14,1 % (1886,8 м^3/га) гача бўлган кўрсаткичларни ташкил этди. Найчалаш даврига келиб тажрибанинг барча вариантларида тупроқ намлиги янада камайиши аниқланди. Агар тажрибанинг назорат вариантида тупроқнинг 0-20 см қатламида 7,8 % (199,7 м^3/га), 1 м қатламида жами 1454,7 м^3/га (10,9 %) намлик бўлган бўлса, бу кўрсаткичлар ўғит берилган вариантларда тегишлича 7,0-8,0 % (179,2-206,4 м^3/га) ва 10,7-12,9 % ёки 1429,3-1725,1 м^3/га ни ташкил этди. 2023 йили тупроқнинг намлиги буғдойнинг бошоқлаш даврига келиб тупроқнинг 0-20 см қатламидаги намлик назорат вариантида 7,2 % (184,3 м^3/га), 0-100 см қатламида эса 9,4 % (1259,1 м^3/га) ни, ўғитланган вариантларда эса 9,5-10,7 % (1273,0-1419,2 м^3/га) ни ташкил этди. Буғдойнинг тўлиқ пишиш даврига келиб тажрибанинг ўғитланмаган назорат вариантида тупроқнинг 0-100 см қатламида ўртача 7,8 % (1043,3 м^3/га), ўғитланган вариантларда эса 8,2-10,0 % (1094,6-1343 м^3/га) намлик сақланиб қолди.

Юқоридаги аниқланган кўрсаткичлар бўйича худди шундай ўзгариш тенденцияси 202024 йилда ҳам кузатилди.

Ушбу тажриба натижаларига кўра, турли шакл ва меъёрдаги азотли ва фосфорли ўғитлар “Бахмал -97” буғдой навининг 1 м^2 даги туп сонига сезиларли даражада таъсир этди. Масалан, 1-2 барг ҳолатидаги туп сони назорат вариантда ўртача 110 дона/м^2 ни ташкил этган бўлса, ўғитланган барча вариантларда ўсимликнинг туп сони 116-125 дона/м^2 ни ташкил этди. Бу вариантларда ўсимликнинг туп сони назоратга нисбатан 6-15 та ортиқ бўлганлиги кузатилди.

Тажрибанинг иккинчи йилида назорат вариантида 99,0 дона/м^2, андоза вариантида 118,0 дона/м^2 ни, $N_{40}P_{40}K_{40}$– P_{40} (PS-агро) + N_{40} вариантида эса 136,0 дона/м^2 ни ташкил этди. Келтирилган вариантларда ўсимликлар туп сони назорат вариантига нисбатан 19,0-37 тага ошганлиги аниқланди. Икки йиллик маълумотларга асосан назорат вариантида ўртача 104,5 дона/м^2 ни, ўғитланган вариантларда 117,0-130,5 дона/м^2 ни ташкил этди.

Турли шаклдаги маъданли ўғитларнинг “Бахмал-97” буғдой нави дон ҳосилдорлигига таъсири (Ғаллаорол, 2023-2024 йиллар)

№	Вариантлар	2023 йилда ўртача, ц/га	2024 йилда ўртача ц/га	Йиллар бўйича ўртача, ц/га	Назоратга нисбатан		Йиллар бўйича ўртача	
					± ц/га	%	1 та бошоқ оғирлиги, г	1000 та дон вазни, г
1	Ўғитсиз – назорат	8,0	6,8	7,4	-	100	0,49	27,0
2	$Р_{40}К_{40}$-(кузда) $Р_{40}$-аммофос	11,4	8,9	10,2	+2,8	137	0,58	29,7
3	N_{40} $Р_{40}К_{40}$ – андоза ($Р_{40}$ аммофос) + $N_{аа40}$	12,8	11,4	12,1	+4,7	165	0,66	30,8
4	$N_{40}Р_{40}К_{40}$ – $Р_{40}$ аммофос + $N_{м40}$	12,2	11,2	11,7	+4,3	158	0,69	32,3
5	$N_{40}Р_{40}К_{40}$– $Р_{40}$ аммофос + $N_{ас40}$	13,6	11,2	12,4	+5,0	167	0,73	31,1
6	$Р_{40}К_{40}$ – суперфос	11,2	7,9	9,6	+2,2	130	0,67	30,5
7	$Р_{40}К_{40}$– суперфос+ $N_{аа40}$	14,2	10,2	12,2	+4,8	165	0,69	30,3
8	$Р_{40}К_{40}$ – суперфос + $N_{м40}$	14,6	12,2	13,4	+6,0	181	0,77	35,4
9	$Р_{40}К_{40}$ – суперфос + $N_{ас40}$	14,0	10,5	12,3	+4,9	166	0,76	29,5
10	$Р_{40}К_{40}$- $Р_{40}$-(PS-агро) ўғити	-	10,5	10,5	+3,1	142	0,75	25,2
11	$N_{50}Р_{40}К_{40}$-(PS-агро) + $N_{аа40}$	-	12,8	12,8	+5,4	173	0,77	27,8

12	$N_{40}P_{40}K_{40}$ – P_{40} (PS-агро) + $N_{м40}$	-	12,5	12,5	+5,1	169	0,80	28,8
13	$N_{40}P_{40}K_{40}$– P_{40} (PS-агро) + N_{ac40}	-	11,2	11,2	+3,8	151	0,72	27,0
M, % $ЭКФ_{05}$, ц/га		3,1 1,15	5,4 1,68					

2024 йилда маъданли ўғитлар ҳисобига олинган қўшимча дон ҳосили вариантлар бўйича гектарига 2,1-6,0 ц ни, энг юқори ҳосилдорлик эса гектарига соф ҳолда 40 кг PS-агро фосфорли, шунча миқдордаги калий тузини плуг остига берилган ва 40 кг аммиакли селитра ва карбамид каби азотли ўғитлар билан эрта баҳорда озиқлантирилган вариантларда олинди – 12,6-12,8 ц/га (150-152 %). Ҳар иккала йилда ҳам кузги буғдойни 40 кг/га ҳисобида аммоний сулфат ўғити билан озиқлантириш самарадорлиги пастроқ бўлди.

Икки йиллик тадқиқот натижаларига кўра, назорат (ўғитсиз) вариантга нисбатан юмшоқ буғдой “Бахмал-97” навида энг юқори дон ҳосилдорлиги гектарига ерни ҳайдаш олдидан соф ҳолда 40 кг (суперфос) фосфорли ва 40 кг калийли ҳамда буғдойнинг туплаш даврида 40 кг азотли (карбамид) ўғитлари берилган вариантда 13,4 ц ни ташкил этиб, ўғитлар ҳисобига ўртача қўшимча 6,0 ц дон ҳосили олинганлиги қайд этилди.

Маълумки, бошоқли дон экинлари ҳосилдорлигининг ошишида битта бошоқдаги дон оғирлиги муҳим биометрик кўрсаткичлардан ҳисобланади. Битта бошоқдаги дон сони ўғитланган вариантларда назоратга нисбатан 2,6 тадан 19,7 донагача кўплиги аниқланди. 2023 йили тажрибанинг назорат вариантида битта бошоқдаги дон оғирлиги 0,51 г ни ташкил этган бўлса, турли шаклда ва меъёрда ўғитлар берилган вариантларда эса бу кўрсаткич назоратга нисбатан 0,13-0,41 г га кўп бўлганлиги аниқланди.

2024 йилда 1 та бошоқдаги дон оғирлиги назорат вариантда атиги 0,48 г ни ташкил этса, энг юқори кўрсаткич 40 кг/га PS-агро фосфорли ва калийли ўғитларни плуг остига берилган ҳамда шунча миқдордаги аммиакли селитра ва карбамид билан озиқлантирилган вариантларда аниқланди 0,77-0,80 г. Кузги буғдойнинг 1000 та дон вазни турли шаклдаги маъданли ўғитлар берилган вариантларда назоратга нисбатан 0,6-4,6 г гача ошгани ҳолда бу вариантлар ўртасида сезиларли даражада фарқ кузатилмади.

Хулоса: Икки йиллик тажрибалар натижаларига кўра, лалмикор ерларнинг ёғингарчилик билан ярим таъминланган минтақасида турли фосфорли ва азотли ўғитларнинг самарадорлиги об-ҳаво шароитларига қараб ўзгариб бориши маълум бўлди. Бу ўғитлар самарадорлигини янада оширишда ёғингарчилик кўп бўлган йилларда турли бегона ўтлар ва касалликларга қарши кимёвий препаратларни кенг қўлланиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Ёғин-сочин миқдори кўп йиллик меъёрдан кўп бўлган ва унга яқин бўлган йилларда гектарига 40 кг дан фосфорли, калийли ўғитлар ҳамда шунча миқдорда эрта баҳорда азот билан озиқлантирилган вариантда назоратга нисбатан 4,6 ц юқори ҳосил олинди. Бу кўрсаткич шунча миқдорда аммофос, калий тузи ҳамда азот билан озиқлантирилган вариантга нисбатан 1,6 ц кўп бўлиб янги ўғитнинг самарадорлигини намоён этди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Лавронов Г.А. Основные итоги научно-исследовательской работы отдела агротехники. «50 лет научно-исследовательской работы по богарному земледелию. Ташкент. 1965.
2. Юсупов Х. Ғайбуллаев С. Лалмикор ерларда деҳқончилик- мўл ва экологик тоза маҳсулот етиштириш омили. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. Тошкент. 2014. № 2. 4 б.
3. Юнусов М. Агрохимические свойства типичных богарных сероземов и пищевой режим пшеницы по различным предшественникам. Диссертация на соискание ученой степени канд. с.х.наук. Галляарал. 1973.
4. Юсупов Х. Абдухалиқова Б. Ҳайдаров Б. Ғалла-шудгор алмашлаб экиш тизимида тупроқдаги гумус миқдорининг ўзгариши. “Ўзбекистонда ғаллачиликнинг яратилган илмий асослари” халқаро илмий-амалий конференцияси илмий тўплами. Жиззах. 2013 йил. 255-257 б.
5. Доспехов Б.А. “Методика полевого опыта”. Москва. 1983.
6. Эшмирзаев Қ.Э., Юсупов Х. Дон экинларидан юқори ҳосил етиштириш (тавсиялар). Тошкент. 1995. 66 б.

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV JARAYONLARINING RIVOJLANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TASNIFI

O'rinov Akmaljon
Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot va servis kafedrasi dotsenti, i.f.n
urinov_aa@mail.ru
+998907877500
Sarvinoz Mamatojieva
Farg'ona davlat universiteti magistranti
sarvinozdilshodjonqizi@gmail.com
+998911318636

CLASSIFICATION OF FACTORS INFLUENCING THE EFFECTIVENESS OF MANAGEMENT PROCESS DEVELOPMENT AT INDUSTRIAL ENTERPRISES

O'rinov Akmaljon
Associate Professor of the Department of Economics and Service, Fergana State University, Candidate of Economic Sciences
urinov_aa@mail.ru
+998907877500
Sarvinoz Mamatojieva
Master's student of Fergana State University
sarvinozdilshodjonqizi@gmail.com
+998911318636

КЛАССИФИКАЦИЯ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

O'rinov Akmaljon
Доцент кафедры экономики и сервиса Ферганского государственного университета, к.э.н.
urinov_aa@mail.ru
+998907877500
Sarvinoz Mamatojieva
Магистрант Ферганского государственного университета
sarvinozdilshodjonqizi@gmail.com
+998911318636

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat sektori boshqaruvi samaradorligini optimallashtirish faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Shu bilan birga, resurslar va vaqtni tejash zarurati mavjud. Samarali sanoat boshqaruvi tizimi jarayonlarini yanada tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va ish sifatini yaxshilaydi.*

Kalit so'zlar. *Samaradorlik, ishlab chiqarishni boshqarish, raqamli sanoat, boshqaruv loyihalari, sanoat boshqaruvi.*

Abstract. I*n this article, he is engaged in activities to optimize the efficiency of industrial sector management. At the same time, there is a need to save resources and time. An effective industrial management system further accelerates processes, reduces costs, and improves work quality.*

Keywords. *Efficiency, production management, digital industry, management projects, industry management.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается деятельность по оптимизации эффективности управления промышленным сектором. В то же время существует необходимость экономии ресурсов и времени. Эффективная система управления промышленностью ускоряет процессы, снижает затраты и улучшает качество работы.*

Ключевые слова. *Эффективность, управление производством, цифровая индустрия, управленческие проекты, управление промышленностью.*

KIRISH. Har qanday milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning hududlarining muvozanatli va barqaror rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Mintaqalar va ularning hududlarini barqaror rivojlantirishda esa sanoat tarmoqlarining ahamiyati beqiyosdir. Chunki sanoat tarmoqlari iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mahalliylashtirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yaxshilashga xizmat qiladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ishlab chiqarishda yaratilgan barcha xomashyolarni qayta ishlash, ulardan turli xil mahsulotlar tayyorlash hisobiga diversifikatsiya jarayonlari takomillashadi. Jahon tajribasida rivojlangan va yuqori o‘sish sur’atlariga erishgan mamlakatlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ularning muvaffaqiyatlari asosan sanoat tarmoqlarida, xususan, qayta ishlash sanoati korxonalaridagi tarkibiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan. Sanoatning boshqa tarmoqlardan farqli jihati - yuqori darajadagi qo‘shimcha qiymat yaratishidadir.

Qo‘shilgan qiymat - bu muayyan turdagi mahsulotni yaratish, qayta ishlash, marketing faoliyatini olib borish va pirovard iste’molga yetkazgunga qadar ishlab

chiqarish jarayonining ketma-ketligidir. Korxonalar faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi yoki darajasining o‘zgarishi ma’lum bir omillar ta’siri ostida sodir bo‘ladi. Korxona faoliyatini boshqarishni xolisona va har tomonlama o‘rganish davomida unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi dolzarb va yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lishi ehtimoli yuqori. Korxona boshqaruv faoliyati salohiyatini oshirishning ikkita asosiy turini ajratish mumkin: birinchisi, foydalaniladigan resurslar miqdori va hajmining ko‘payishi natijasida yuzaga keladigan ekstensiv ishlab chiqarish, ikkinchisi, innovatsion omillar sifatini oshirishga asoslangan intensivlik. Shu sababli iqtisodiy salohiyatga turli omillar va shart-sharoitlar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Iqtisodiy salohiyatga ta’sir etuvchi omillar deganda, ishlab chiqarish hajmi, uning sur’ati va samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hodisa hamda jarayonlar tushuniladi. Innovatsion faoliyat omili deganda, korxonaning innovatsion o‘sish sur’ati va xususiyatlariga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar, sabablar va ko‘rsatkichlarni nazarda tutamiz. Bunda innovatsion jarayon ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sanoat boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirish usullarini o'rganish va tahlil qilishdir. Tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya, asosan, **sistemali yondashuv, statistik tahlil** qiyosiy tahlil, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI. Ko‘plab mualliflar korxonaning innovatsion faoliyatiga ta’sir o‘tkazuvchi omillarga o‘z e’tiborini qaratishgan. T.G. Filosofova o‘z asarida, sanoat korxonalarida innovatsiyalarga to‘sqinlik etuvchi quyidagi omillarni qayd etib o‘tgan:

-iqtisodiy - moliyaviy resurslar bilan kam ta’minlanganlik, davlat tomonidan kam moliyalashtirilish, innovatsiyalarni targ‘ib qilishga yuqori sarf-harajatlar, iqtisodiy xavfning yuqori darajasi, innovatsiyalar qaytimlarining uzoq muddati;

-ishlab chiqarish - malakali kadrlar yetishmasligi, yangi texnologiyalar, sotish bozorlari to‘g‘risida zarur ma’lumotlarning yo‘qligi, tashkilotning innovatsiyalarni tezda qabul qila olmasligi, boshqa tashkilotlar, korxonalar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi yoki yo‘qligi;

-boshqa omillar - innovatsion mahsulotga iste’molchilar tomonidan past narxdagi talab, innovatsion faoliyatda yetarlicha qonuniy va meyoriy-huquqiy asoslarning, tartibga solishning yo‘qligi, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni yetarlicha

rag‘batlantirilmasligi, sust rivojlangan innovatsion infratuzilma, texnologiya bozorida rivojlanishning yo‘qligi.

A.A. Bovin esa tashkilotning innovatsion muhitiga quyidagi ta’sir o‘tkazuvchi omillarni keltirib o‘tadi va tahlil qiladi:

-ijtimoiy infratuzilma (ishchilarning ta’lim, tibbiy va madaniy inshootlardagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati);

-aloqa sohasi (aloqa, axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi);

-tabiiy - geografik sharoitlar (transport, moddiy-texnik, energiya, yoqilg‘i va xomashyo resurslarining mavjudligi);

-texnologik va ilmiy-texnik soha (ishlanmalar bozorining mavjudligi, ilmiytadqiqot institutlari va boshqalarning mavjudligi);

-iqtisodiy va moliyaviy soha (innovatsion faoliyatni davlat tomonidan milliy va mintaqaviy darajada qo‘llab-quvvatlanishi, innovatsion ishlanmalardan manfaatdor investorlarning mavjudligi);

-siyosiy-huquqiy soha (innovatsion va ilmiy-texnik sohani huquqiy tartibga solishda milliy, mintaqaviy reja va dasturlarning mavjudligi);

-xo‘jalik yuritishning strategik qamrovi (bozorning muayyan segmentida innovatsiyalarning paydo bo‘lish tezligi);

-mehnat resurslari bozori.

Fikrimizcha, keltirilgan fikrlar, korxona faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning faqatgina kichik bir qismini qamrab olgan. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi korxona faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tasniflash asosida sanoat korxonalari faoliyatini mintaqa iqtisodiyoti samaradorligiga ta’sirini aniqlash. Bilamizki, ushbu jarayonda innovatsion muhit katta ahamiyatga ega va shunga ko'ra korxona innovatsion faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bir qator belgilariga ko‘ra tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida boshqaruvchanlik darajasiga ko‘ra korxona innovatsion faoliyatiga ta’sir o‘tkazuvchi omillarning quyidagi tasnifiy belgilari taklif qilish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR. Kelib chiqish manbalariga ko‘ra, omillar tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy, moliyaviyiqtisodiy, sanoat-texnologik, ilmiy-texnik va tashkiliy-boshqaruv guruhlariga bo‘linadi.

Tabiiy-iqlimiy omillar sanoat korxonalari innovatsion faoliyati natijalariga katta ta’sir o‘tkazadi. Mintaqada joylashgan sanoat korxonalari innovatsion faoliyati rivojlanishi va innovatsion faoliyatning o‘sishiga suv ta’minoti, qulay iqlim, ish sharoitlar va yirik yoqilg‘i va xom-ashyo manbalarining mavjudligi katta hissa qo‘shadi.

Tabiiy-iqlimiy sharoitning murakkabligi, ishchi kuchining yetishmasligi, ishlab chiqarish kuchlari, transport rivojlanish darajasining pastligi, aksincha korxona innovatsion faoliyati rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi bilan birgalikda, korxona innovatsion faoliyat darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yuqorida keltirilgan muammolar yechimi uchun juda katta mablag‘ talab qiladi.

Ijtimoiy omillarga demografik vaziyat, ijtimoiy keskinlik darajasi, ishchilarning yashash sharoiti, korxonada sog‘lomlashtirish, sport va madaniy xordik ishlarini tashkillashtirish, kadrlarning madaniy, ta’limdagi umumiy darajasi va boshqalarni kiritish mumkin. Bular korxona ishlab chiqarish resurslarining samarali va to‘laroq qo‘llanishiga, inson kapitalining koorporativ rivojlanishi va shakllanishini ta’minlashga xizmat qiladi.


Moliyaviy-iqtisodiy omillar mablag‘, xom-ashyo, materiallar bilan ta’minlanganlikni, qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari darajasini aniqlaydi. Innovatsion faoliyatning moliyaviy-iqtisodiy omillarini tadqiq qilish, eng avvalo, korxonaning innovatsion rivojida moliyaviy imkoniyatlarini tadqiq qilish imkoniyatini, kornonaning hozirgi va kelajakdagi moliyaviy holatida innovatsion strategiya rivojlanishining yo‘nalishini oldindan ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Sanoat-texnologik omillar korxona ishlab chiqarish resurslari va texnologiyalarining samarali va to‘liq foydalanishini aniqlab beradi.Ilmiy-texnik omillarga ITTKI o‘tkazilishi, intellektual mulkning mavjudligini qamrab oladi.

Tashkiliy-boshqaruv omillar tahlili innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajasini, samarali innovatsion menejmentni, innovatsiyalarni amalga oshirishda marketing strategiyasini, innovatsiyalarni moliyalashtirishni tashkillashtirishni, innovatsion faoliyat vazifalariga tashkiliy tuzilmaning mos kelishini aniqlashga yordam beradi. Bizning fikrimizga ko‘ra, innovatsion faoliyatga ta’sir o‘tkazuvchi omillarni boshqaruv darajasiga ko‘ra ham tasniflash lozim.

Boshqaruv darajasiga ko‘ra korxona innovatsion faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni tasniflashda korxonani bevosita yoki bilvosita ta’sir o‘tkazuvchi omillarini, shu bilan birgalikda o‘zining innovatsion faoliyati darajasini va korxona ta’sir o‘tkaza olmaydigan omillarni o‘zgartirishini ta’kidlash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv darajasiga ko‘ra innovatsion faoliyat omillari tasniflanishi korxona innovatsion faoliyati darajasini kengaytirish va baholash maslalarini ko‘rib chiqishda eng muhim hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga ta’sir o‘tkazuvchi omillar boshqaruv darajasiga o‘zaro ta’sir etuvchi omillarni 4 ta asosiy blokka ajratish mumkin(1-rasm).Boshqarilmaydigan omillar (yoki berilgan) - bular, korxona innovatsion faoliyatiga, boshqaruv qarorlarini qabul qilinishiga ta’sir o‘tkazmaydigan omillar.


Investitsion jarayonlar
Resurs jihatdan
Moliyaviy
Moddiy-texnik
Mehnat
Yer
Innovatsion
Informatsion
Tashkiliy
Tashkiliy ishlab chiqarish tuzilmasi
Funksiyalari
Tezkor boshqaruv va nazorat
Mehnatning tashkil qilinishi
Kadrlar
Ijtimoiy-iqtisodiy
Prognozlash va rejalashtirish
Iqtisodiy munosabatlar
Rag‘batlantirish
Moliyaviy iqtisodiy mexanizm
Ijtimoiy rivojlanish
Siyosiy va huquqiy
Meyoriy huquqiy asoslar
Hukumat mahalliy organlarining meyoriy huquqiy asoslari
Korxonalarning huquqiy holati
Nazorat
Bozor munosabatlari, innovatsiya, texnologiya va ishlab chiqarish

1-rasm. Innovatsion faoliyatga ta’sir o‘tkazuvchi omillar boshqaruv darajasiga ko‘ra tasniflanishi[1]

Bilvosita boshqariladigan omillar - bular, korxona innovatsion faoliyatiga ta’siri natijalari boshqaruv qarorlarining qanday qabul qilinishi, tashqi omillar ta’siri bilan bog‘liq.Korxona innovatsion faoliyati rivojlanishiga bilvosita boshqariladigan omillarning ta’siri innovatsion loyihalarga ta’sir o‘tkazuvchi moliya institutlarining qabul qiladigan boshqaruv qarorlarini, innovatsiyalar sohasida davlat siyosatining innovatsiyalarni targ‘ib etishda manfaatdorlar sanoat tizimlari bilan bog‘liq (bank sohasi, davlat investorlar) va boshqalar.

Bevosita boshqariladigan omillar sirasiga, korxona innovatsion faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish natijalariga boshqaruv qarorlarinig qabul qilinishi bilan butunlay bog‘liq bo‘lgan omillarni keltiramiz.

Korxonaning innovatsion faoliyatiga uning sohaga tegishliligi alohida ta’sir o‘tkazadi. U aytarli darajada xususiy, mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishga sharoit yaratadi. Boshqa shu kabi sharoitlarda ham aynan qaysi sohaga tegishlilik omili investitsiyalarni o‘ziga jalb qilish ko‘lamini oshiradi.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyat samaradorligiga omillar ta’sirini tahlil qilish va o‘rganishning bir qancha ilmiy asoslangan samarali metodologiyalari mavjud bo‘lib, tadqiqotimizda mintaqada sanoatning innovatsion boshqaruviga ta’sir etuvchi eng muhim omillarni ajratib olish hamda ularni baholashda omil ko‘rsatkichlari ta’sir darajasi va ta’sir kuchini baholash imkoni kengroq bo‘lgan PEST (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va texnologik omillar) tahlildan foydalanildi.

PEST tahlilni amalga oshirish uchun dastlab hududiy sanoat bozorida faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar 4 ta guruh bo‘yicha aniqlab olindi va alohida guruhlarga ajratilgan holda 1-jadvalga kiritildi. Har bir omil guruhi tarkibidagi ta’sir etuvchi omilning sanoat boshqaruvi faoliyatiga ta’sir darajasi hamda ushbu omil ta’sirining ahamiyatini baholash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi hududiy boshqarmalari yetakchi ekspertlari xulosalaridan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

[1] A.M.Alimov. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. -T.: «Fan va tcxnologiya»,2016, 276 bet

PEST tahlil uchun olingan mintaqa sanoatining boshqaruv mexanizmlariga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’sir darajasi[2]

Omil guruhi va turi	**Omilning ta'sir darajasi***	**Omil guruhi va turi**	**Omilning ta'sir darajasi***
Siyosiy omillar guruhi		**Iqtisodiy omillar guruhi**	
Davlatning siyosiy barqarorligi	2	Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan milliy va mintaqaviy darajada qo‘llab-quvvatlanishi	3
Mintaqaviy reja va dasturlarning mavjudligi	3	Inflyatsiya darajasi	3
Davlatning soliq siyosati	2		
Mintaqada sanoat ishlab chiqarish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishdagi o'zgarishlar	2	Sohada faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar soni	2
		Kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikning soha faoliyatidagi ulushi	3
Sanoat boshqaruv faoliyatiga oid qonunchilikning amal qilish darajasi	2	Infratuzilma tizimining shakllanganlik darajasi	1
Ijtimoiy-demografik omillar guruhi		Soha faoliyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi	2
		Innovatsion ishlanmalardan manfaatdor	2

[2] Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

		investorlarning mavjudligi	
Sohaga malakali kadrlar yetkazib beruvchi ta'lim tizimi darajasi	2	**Texnologik omillar guruhi**	
Ishchilarning tibbiy va madaniy inshootlardagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati darajasi	2		
Tabiiy - geografik sharoitlar holati	3	Soha korxonalarida innovatsiyalardan foydalanish darajasi	2
Axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi darajasi	3	Soha korxonalarida yangi texnologiyalarni xarid qilish imkoniyati	2
Alohida xodimlar va bo‘linmalarning innovatsion erkinligi darajasi	2		
		Sohada yangi texnologiyalarni joriy etilish darajasi	3
		Ishlanmalar bozorining mavjudligi, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalarning mavjudligi darajasi	2

*PEST tahlil uslubiyatidan kelib chiqib omilning ta’sir darajasi 1–3 daraja oralig‘ida belgilandi.

Siyosiy omillar qatoriga davlatning siyosiy barqarorligi, mintaqaviy reja va dasturlarning mavjudligi, davlatning soliq siyosati, mintaqada sanoat ishlab chiqarish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishdagi o‘zgarishlar, sanoat boshqaruvi faoliyatiga oid qonunchilikning amal qilish darajasi kabi omillar tanlab olindi.

Iqtisodiy omillar sifatida innovatsion faoliyatining davlat tomonidan milliy va mintaqaviy darajada qo'llab-quvvatlanishi, inflyatsiya darajasi, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning soha faoliyatidagi ulushi, infratuzilma tizimining shakllanganlik darajasi, soha faoliyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, Innovatsion ishlanmalardan !manfaatdor investorlarning mavjudligi kabi omillar tanlandi.

Ijtimoiy-demografik omillar – sohaga malakali kadrlar yetkazib beruvchi ta'lim tizimi darajasi, ishchilarning tibbiy va madaniy inshootlardagi xizmatlardan foydalanish darajasi, tabiiy-geografik sharoitlar holati , axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi darajasi, alohida xodimlar va bo'linmalarning innovatsion erkinligi darajasi kabi omillar.

Texnologik omillar sifatida soha korxonalarida innovatsiyalardan foydalanish darajasi, soha korxonalarida yangi texnologiyalarni xarid qilish imkoniyati, sohada yangi texnologiyalarni joriy etilish darajasi hamda Ishlanmalar bozorining mavjudligi, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalarning mavjudligi kabi omillar tanlab olindi.

Ekspertlar tomonidan 4 ta guruhga birlashtirilgan omillarning ta’sir darajasi PEST tahlil uslubiyatidan kelib chiqqan holda 1–3 gacha bo‘lgan daraja asosida belgilandi. Omillarning ta’sir kuchi darajasi har bir darajaning quyidagi xususiyatlarini ifoda etadi:

1 – omilning ta’sir darajasi past, omilning har qanday o‘zgarish holati mintaqa sanoatining boshqaruv mexanizmlari rivojlanishiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi;

2 – omilning sezilarli miqdordagi o‘zgarishigina mintaqa sanoatining boshqaruv mexanizmlari rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi;

3 – omilning ta’sir darajasi yuqori, omil ko‘rsatkichining har qanday tebranishi mintaqa sanoatining boshqaruv mexanizmlari rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ta’sir darajasi bo‘yicha belgilangan omillarning ta’sir kuchi ekspertlar tomonidan baholandi hamda ularning ta’sir darajasi va ta’sir kuchi bo‘yicha tahlil natijalari 2-jadvalda umumlashtirildi. Ushbu omillar yuqorida o‘tkazilgan tahlillar, soha rivojlanishining xususiyatlari hamda soha faoliyatiga aloqador ekspertlar fikrlari asosida tanlab olindi.

Umumiy holatda, respondentlar tomonidan mintaqa sanoat boshqaruvi faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishga to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida ekspertlar tomonidan belgilab berilgan faoliyat ko‘rsatuvchi funksional tizimlar doirasida sohaga yangiliklar va faoliyatni maqsadli moliyalashtirishning mavjud emasligi belgilangan.

Tahlil o‘tkazish uchun ekspertlar tavsiyalari asosida shakllantirilgan omillarning eng muhim indikatorlari sifatida faoliyatni boshqarishning kompleks tizimini yaratilishi, sohaga investitsiyalar jalb etilish darajasi, sohada raqobat muhitini

shakllantirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining yaratilishi, sohada raqobat muhitini rivojlantirish uchun mavjud sharoitlar, infratuzilma tizimining yetarli darajada shakllanishi kabi ko‘rsatkichlarni belgilash tavsiya etiladi.

2-jadval[3]

Mintaqa sanoatining boshqaruv mexanizmlariga ta’sir etuvchi omillar va kuchining real ahamiyati baxosi

Omil guruhi va turi	Omilning ta'sir darajasi	Ekspertlar baxosi					O'rtacha baxo	Omilning ta'sir kuchi
		1	2	3	4	5		
Siyosiy omillar guruhi								
Davlatning siyosiy barqarorligi	2	5	2	3	4	4	4	0,5
Mintaqaviy reja va dasturlarning mavjudligi	3	2	3	1	1	2	2,4	0.25
Davlatning Soliq siyosati	2	4	4	3	4	4	4,2	0,47
Mintaqada sanoat ishlab chiqarish faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishdagi o'zgarishlar	2	5	3	2	2	4	3,6	0,55
Sanoat boshqaruv faoliyatiga oid qonunchilikning amal qilish darajasi	2	3	3	2	3	3	3,2	0,63
Iqtisodiy omillar guruhi								
Innovatsion faoliyatining davlat tomonidan milliy va Mintaqaviy darajada qo'llab-quvvatlanishi	3	4	4	5	4	3	4,6	0,65
Inflyatsiya darajasi	3	4	4	4	5	3	4,6	0,65

[3] Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

Sohada faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar soni	2	5	5	4	4	3	4,6	0,43
Kichik-biznes va xususiy tadbirkorlikning soha faoliyatidagi ulushi	3	4	4	5	3	3	4,4	0,68
Infratuzilma tizimining shakllanganlik darajasi	1	4	5	5	5	4	4,8	0,20
Soha faoliyatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi	2	4	5	5	5	4	5	0,40
Innovatsion ishlanmalardan manfaatdor investorlarning mavjudligi	2	4	4	4	3	5	4,4	0,45
Ijtimoiy-demografik omillar guruhi								
Sohaga malakali kadrlar yetkazib beruvchi ta'lim tizimi darajasi	2	3	4	2	2	3	3,2	0,63
Ishchilarning tibbiy va madaniy inshootlardagi xizmatlardan foydalanish imkoniyati darajasi	2	3	3	4	3	3	3,6	0,55
Tabiiy - geografik sharoitlar holati	3	4	3	4	4	3	4,2	0,71
Axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi darajasi	3	4	4	5	5	5	5,2	0,57
Alohida xodimlar va bo‘linmalarning innovatsion erkinligi darajasi	2	4	4	5	5	4	4,8	0,41
Texnologik omillar guruhi								
Soha korxonalarida innovatsiyalardan	2	3	3	5	4	3	4	0,5

Soha korxonalarida yangi texnologiyalarni xarid qilish imkoniyati	2	4	2	3	3	3	3,4	0,58
Sohada yangi texnologiyalarni joriy etilish darajasi	3	1	3	2	3	3	3	1
Ishlanmalar bozorining mavjudligi, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalarning mavjudligi darajasi	2	4	5	4	3	4	4,4	0,45

Yuqoridagi omilli PEST tahlil hamda sohada faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari tahliliga asoslangan holda kelgusida mamlakatimizda sanoat sohasini rivojlantirish va sohani boshqarish jarayonlari samaradorligini oshirish yo‘nalishidagi faoliyatni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- hududlarning sanoat salohiyatini omilli tahlil qilish asosida soha rivojlanishi uchun zaruriy infratuzilma tizimlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish;

- tizimli o‘zgarishlar asosida soha boshqaruv faoliyati kesimida malakali kadrlarni tayyorlash;

-Innovatsion ishlanmalardan manfaatdor investorlarning sonini va boshqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali ichki va tashqi muhit elementlarining o‘zaro aloqasini samarali ta’minlash;

- sanoat boshqaruvi faoliyatini moliyalashtirish uchun investitsiyalar jalb qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;

- sohada faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta’minlash maqsadida zaruriy huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish.

XULOSALAR

Sanoat boshqa sohalarda boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, resurslarni optimal taqsimlash, transport tizimini va saqlash jarayonlarini yaxshilashni, axborot texnologiyalari va raqamli tizimlarni joriy etishni o’z ichiga oladi. Boshqaruv jarayonlarining samarali boshqarilishi nafaqat xarajatlarni kamaytirishga, balki vaqtni tejash, mahsulot sifatini yaxshilash va mijozlarga sifatli xizmat ko’rsatishni ta'minlashga yordam beradi. Hozirgi kunda,

ishlab chiqarish jarayonlarida samarali boshqaruv tizimlarini joriy etish uchun kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga, resurslarni tejashga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlarga muhtoj.

Ta□minot zanjirini yaxshilash va zanjirdagi barcha bosqichlarni optimallashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirish mumkin.

Xodimlarning motivatsiyasini oshirish va rag'batlantirish tizimlarini yaratish, bu orqali ishlab chiqarish va logistika jarayonlarida samaradorlikni oshirish.

Taklif etilayotgan ustuvor yo‘nalishlarning sohada kelgusida to‘laqonli amalga oshirilishi ushbu sanoat sohasida faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini rivojlantirish hamda faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni boshqarish va muvofiqlashtirish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlar darajasini pasaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.M.Alimov. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. - T.: «Fan va tcxnologiya»,2016, 276 bet.

2. Digitalization of the Energy Industry as a Direction for Ensuring the Growth of Energy Efficiency and the Energy Security of the State-T.G.Filosofova

3. A. N. Bovin’s research while affiliated with Russian Academy of Sciences and other places

4. Berdiyev Abdumalik, Erkayeva Gulbahor, other. Measures to Increase the Popularity Of Banking Services. International Journal of Modern Agriculture. Volume 10, No.2,10 (2), 3943 – 3949. 2021 ISSN: 2305-7246. Полученохttp://www.modernjournals.com/index.php/ijma/article/view/1269.

5. Жигарев С.А. Факторы повышения эффективности инвестиционных процессов в машиностроении. // TERRA ECONOMICUS (Экономический вестник Ростовского государственного университета). 2009, Том 7, № 2 (часть 3). - 171 с

6. FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI. 2024-YIL YANVAR OYI (DASTLABKI MA’LUMOT)

7. Bekmurodov A.Sh., G`afurov U.V., Tuxliev B.K. Jahon moliyaviyiqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari: O`quv q o`llanma. –T.: TDIU 2009. – 124 b.

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

UDK : 314.012(575.1)

DEMOGRAPHIC SITUATION AND FACTORS AFFECTING POPULATION DECLINE IN UZBEKISTAN

O‘ralov Orzubek Xamza o‘g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Nematullayev Bobur Qodirjon o’g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti
Antropolpgiya va etnologiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УБЫЛЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

O‘ralov Orzubek Xamza o‘g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Nematullayev Bobur Qodirjon o’g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti
Antropolpgiya va etnologiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK HOLAT VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

O‘ralov Orzubek Xamza o‘g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti
Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Nematullayev Bobur Qodirjon o’g‘li
O‘zMU Tarix fakulteti
Antropolpgiya va etnologiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada demografik o‘zgarishlarning iqtisodiy taraqqiyotga ko‘rsatadigan ko‘p qirrali va murakkab ta’sirini chuqur tahlil qilinadi. Unda, aholi sonining o‘sishi sur’ati, yosh tarkibi, qarish jarayoni, tug‘ilish va o‘lim*

darajasi, migratsiya oqimlari kabi demografik omillar iqtisodiy o‘sish, mehnat bozori, investitsiyalar hajmi, davlat byudjeti barqarorligi, ijtimoiy ta’minot tizimi va boshqa muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga qanday ta’sir etishi batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar. *ijtimoiy ta’minot tizimi, tug‘ilish va o‘lim darajasi, migratsiya oqimlari, “demografik dividend”*

Abstract. *This article provides an in-depth analysis of the multifaceted and complex impact of demographic changes on economic development. In particular, demographic factors such as population growth rate, age structure, aging process, birth and death rate, migration flows, economic growth, labor market, volume of investments, state budget stability, social security system and how it affects other important macroeconomic indicators is described in detail.*

Key words: *social security system, fertility and mortality, migration flows, “demographic dividend”*

Аннотация. *В данной статье представлен углубленный анализ многогранного и сложного влияния демографических изменений на экономическое развитие. В частности, демографические факторы, такие как темпы роста населения, возрастная структура, процесс старения, уровень рождаемости и смертности, миграционные потоки, экономический рост, рынок труда, объем инвестиций, стабильность государственного бюджета, система социального обеспечения и то, как это влияет на другие важные макроэкономические показатели. описано подробно.*

Ключевые слова. *система социального обеспечения, рождаемость и смертность, миграционные потоки, «демографический дивиденд»*

KIRISH

Demografik o‘zgarishlar, ya’ni aholi soni, tarkibi va taqsimlanishidagi siljishlar, globallashuv davrida iqtisodiy taraqqiyotning muhim determinanti sifatidagi ahamiyat tobora ortib bormoqda. Aholining o‘sishi, qarishi, migratsiya oqimlari, urbanizatsiya jarayonlari kabi demografik jarayonlar nafaqat ijtimoiy sohani, balki makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni, mehnat bozori dinamikasini, investitsiya muhitini, davlat byudjeti barqarorligini va xalqning turmush darajasini ham sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Ushbu o‘zgarishlarning murakkab va ko‘p qirrali xususiyatini hisobga olgan holda, demografik omillarni chuqur tahlil qilish va ularning iqtisodiyotga ta’sirini oldindan bashorat qilish uzoq muddatli va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, samarali ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar sifatida statistik ma’lumotlar, global tahlilchilarning kuzatuvlari, prognozlar va istiqbolli demografik jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi tahlillar, shuningdek, Q.Abdurahmonov, I.Soliyevlarning tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi[1,20;298;90].

Mazkur mavzuni yoritish uchun so‘rovnoma o‘tkazish, olingan statistik ma’lumotlar asosida qiyosiy tahlil qilish, global miqyosdagi o‘zgarishlarni jamiyatimizdagi o‘rnini tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatlar tarqqiyoti yo‘lida demografik o‘zgarishlar turli imkon va xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Aholi muvozanati saqlash bugungi zamonda ham rivojlanayotgan, ham rivojlangan davlatlar uchun dolzarb masala sanaladi. Rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar yosh aholi ulushining yuqoriligi “demografik dividend” deb ataluvchi hodisani yuzaga keltirib, aholi sonining oshishiga zamin yaratayotgan bo‘lsa, rivojlangan mamlakatlar uchun mazkur jarayonning aksi, ya’ni aholining qarishi oqibatida tabiiy o‘sishning kamayishi kuzatilmoqda. Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko‘payishi va rivojlanish qonuniyatlarini alohida-alohida o‘rganadi. Chunki, har bir ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xos aholi o‘sish qonuni demografik vaziyatga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. XX asrning o‘rtalariga qadar O‘zbekistonda aholining turmush darajasi nisbatan pastligi tufayli aholi o‘rtasida o‘lim yuqori bo‘lgan. Garchi tug‘ilish yuqori bo‘lsa ham aholi juda sekin ko‘paygan. XX asrning 2-yarmidan O‘zbekistonda aholi o‘rtasida o‘lim bir oz kamayib, aholining o‘rtacha umr ko‘rsatkichlari uzaydi. Natijada aholining miqdor va sifat o‘sishi ro‘y berdi[2,298]. Aynan, shu davrdan O‘zbekistonda demografiya sohasining rivojlanishiga e’tibor berildi.

Bunda mehnatga layoqatli aholi sonining ortishi natijasida iqtisodiy o‘sish tezlashdi, investitsiyalar uchun qulay muhit shakllanadi va davlat byudjeti daromadlari ko‘payadi. Biroq, bu imkoniyatdan to‘liq foydalanish uchun ta’lim tizimini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, sog‘liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Aks holda, aholi sonining tez o‘sishi ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va boshqa ijtimoiy sohalarga ortiqcha bosim o‘tkazib, resurslar taqchilligiga, ishsizlikning kuchayishiga, shuningdek, ijtimoiy tangliklarga olib kelishi mumkin. Qolaversa, aholi qarishi bilan bog‘liq muammolar, jumladan, mehnatga layoqatli aholi ulushining kamayishi, pensiya xarajatlarining ortishi, sog‘liqni saqlash tizimiga yuklamaning oshishi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishi kabi

xatarlarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Butun dunyoda bo‘layotgani kabi mamlakatimiz ham demografik tendensiyalarni tez-tez va davomli tarzda hisoblab bormoqda [3,90]. Mazkur hisob kitoblar kelajakdagi O‘zbekiston respulikasi aholisining qay yo‘sinda ketishi bilan qiziqib borayoganidan dalolat beradi. Bu bo‘yicha kuzatishlar, asosan, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Aholishunoslik ilmiy tadqiqot labaratoriyasi, demografiya, ijtimoiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot, sotsiologiya kafedralari, Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi, Mehnat, aholi bandligi va ijtimoiy muhofazani o‘rganish Respublika ilmiy markazi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining iqtisodiyot instituti, O‘zbekiston Respublikasi “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazida olib boriladi [4,178]. Mazkur kuzatishlar, mamlakat aholishing dinamikasini o‘zgarish tendensiyasini ko‘rsatish orqali mazkur masala yuzasidan qilinishi lozim bo‘lgan ishlarning nazariy jihatlarini yaratadi

O‘zDavStat qo‘mitasi tomonidan olingan aholishunoslik bo‘yicha statistikaga ko‘ra, 2024-yilning oktabr oyiga qadar umumiy holatda 693897 nafar tug‘ilish qayd etilgan bo‘lsa, 131674 nafar kishi hayotdan ko‘z yumgan [5,20]. Aholi soni O‘zbekistonda bugungi kunda musbat darajada o‘sib bormoqda. Bu esa aholimiz har yili qariyb 1 mln atrofida o‘sib borayotganligini ko‘rsatadi. Bu esa albatta mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Avvalo, ishchi kuchining oshishi mehnat bozorida raqobatning kuchayishi, shuningdek, xo‘jalikning taraqqiyotiga ham sezilarli darajada katta yordam beradi. Bu esa mamlakatning rivojlanishiga katta turtki beradi.

Shu bilan birga aholi sonining tezlik bilan ko‘payishi mamlakat uchun turli qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Avvalo ishchi kuchining oshib borishi mamlakatda ishsizlik miqdorini oshiradi. O‘tish iqtisodiyoti xarakteriga ega bo‘lgan O‘zbekistonda inson omili yuqori bo‘lgan xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hali yuqori darajada rivojlanmaganligi yoki faoliyat sohalarining cheklanganligi vaziyatni yanada taranglashtiradi. Buning oqibatida tabiiyki, migratsiya hodisasi tezlashib ketadi. Bu holat O‘zbekiston sharoitida hozirda eng yirik muommolardan biri bo‘lib bormoqda. Aholining mexanik ko‘payishi mamlakatimiz bo‘yicha manfiy ko‘rsatgicha ega bo‘lib, qariyb bu yil hisobida 8,4 mingga yaqin aholi mamlakatni butunlay tark etgan[6]. Bu esa ayni paytda mamlakat aholisining kamayishiga bir qadar sabab bo‘ladi. Bu kamayish quyidagi oqibatlar bilan birgalikda ro‘y beradi:


ish yoki shu kabi maqsadlar bilan mamlakatni tark etayotganlarning eng katta ulushi erkaklar bo‘lib, buning natijasida aholining tabiiy kamayish tendensiyasi pasayib boradi;

migratsiya natijasida ketganlarning ulushi ortib borishi, ajrimlar sonining ham oshishiga sabab bo‘ladi;

aholining migratsiyasining ko‘payishi ortidan yoshlarning mamlakatni tark etish miqdori oshadi. Bu esa albatta mehnatga layoqatlilarning kamayishig olib keladi;

malakali kadrlarning rivojlangan davlatlarga ketishi ortidan mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.


The set goals cannot be achieved without fully transferring Uzbekistan to an innovative model of development, which requires the creation of an effective system of state support for innovative activities in the country and the promotion of the practical implementation of innovative ideas, developments and technologies in public administration, priority sectors of the economy and the social sphere. State regulation of innovation processes is aimed at improving the mechanism for introducing innovations in agriculture [7].

Analysis and main results. The application of innovations to the agricultural sector represents new approaches to social services used to increase production efficiency, new forms of organization and management of various sectors of the economy, new methods of treatment and prophylaxis of livestock and poultry, plant and animal protection products, new technologies in farming, animal husbandry and the processing industry, economic practices in the development and research of new, new or high-quality food products, types and breeds of livestock and poultry, and new plant species.

The organization of the main types and directions of innovations in the agro-industrial complex is carried out, which is associated with their diversity, form,

methods of application. Therefore, the management of innovation processes involves the classification of innovations for various reasons and is carried out in accordance with the key aspects that characterize the most important features of innovations.

According to the sources of scientific literature in agriculture, four types of innovations are selected:

✓ *selection-genetic* ;

✓ *technical and technological production* ;

✓ *organizational and management* ;

✓ It is also important to *solve social and environmental problems* .

This is important for the successful management of innovation processes in the agricultural sector. In our opinion, in order to increase the efficiency of agricultural production, it is necessary to transfer the industry to innovative development paths. In order to create an effective mechanism for managing innovations in agriculture, we propose to create regional specialized agrotechnical centers in each region of Uzbekistan.

The main functions of this regional specialized agro-industrial center are:

development of basic principles for the formation of regional innovation policy in the agro-industrial complex and improvement of methods for its implementation;

— identification of the main directions of innovative development of agriculture in the region;

— coordination of innovative activities of agricultural enterprises ;

— monitoring the agricultural innovation market;

information and communication support for agricultural enterprises in the field of innovative activities ;

— selection and preliminary assessment of the feasibility of using innovations in agro-industrial production;

— preparing proposals for the development of innovations and providing consulting services in their implementation;

— monitoring the implementation of agricultural innovations and investment projects that receive state benefits.

, we identified the following main areas of innovative development of agriculture in the region (Table 1) :[2]

1 - table

[2] Based on the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-2460 dated December 29, 2017 “On measures for further reform and development of agriculture in 2019-2026” [1]

Innovations	Expected results
In the field of agriculture	
1. Introducing the highest yielding varieties of new crops that are resistant to diseases using cellular technology, molecular genetics, and traditional breeding.	1. Increase crop yields, improve grain quality
2. Adaptation of highly productive varieties of agricultural crops from foreign countries to the soil and climatic conditions of the region	2. Reducing costs by introducing new high-yielding crops
3. Development and implementation of new systems of land use and water conservation technologies	3. Maintaining soil fertility and increasing crop yields
4. Development and implementation of machine-saving systems for the complex mechanization of agricultural technological processes	4. Increase labor productivity, reduce costs for mechanized work
5. Development and use of highly effective biological products to combat plant diseases and pests	5. Increase productivity and quality of products
In the livestock sector	
1. Breeding high-yielding livestock species in agriculture	1 Increasing livestock productivity 2. Improving the breed composition of the herd
2. Adaptation of foreign-bred agricultural livestock in the region	1.Reducing costs for improving the breeding composition of the herd 2. Increasing livestock productivity
3. Development and implementation of waste-free	1.Improving the type of food products 2. Reduce production costs

technologies for processing livestock products	
4. Technological in livestock farming processes Creation of new resource-saving information systems for complex mechanization	1.Increase labor productivity 2. Reduce product costs
5. Renewable natural energy from the source Production of water supply equipment based on usage	1.Reducing the cost of livestock production 2.Enhance environmental safety
6.Improving livestock feeding and feeding systems	1. Increase livestock productivity 2. Improve product quality
Development of new methods of diagnostics, prophylaxis and treatment for livestock	1. Improving the quality of livestock products 2.Improving the ecological condition of the region

** taking into account replanting and fallow lands.*

Measures to optimize the composition of arable land and increase productivity will lead to a significant increase in the volume of agricultural production in our country. In particular, as shown in Table 3 , during 2020-2024, the volume of grain production will increase by 1,195.0 thousand tons, potatoes by 931.0 thousand tons, vegetables by 3,002.2 thousand tons, fruits by 648.6 thousand tons, and grapes by 273.9 thousand tons , creating the basis for ensuring food security in our country [8].

In accordance with this resolution, in 2019-2024, 138 new enterprises with a capacity of 99,100 tons of fruit and vegetable processing , 46 with a capacity of 16,500 tons of meat products processing, 79 with a capacity of 34,850 tons of dairy products processing, and 153 with a capacity of 26,840 tons of other food products processing were launched .

Conclusion and suggestions. As a result of the implementation of systematic measures for deep processing of agricultural products, by 2024, compared to 2019, it will be possible to increase the volume of canned fruits and vegetables by 79.4%, fruit juices by 80.5%, dried fruits by 73.1%, meat and meat products by 59.5%, sausage products by 68.8%, milk and dairy products by 56.6%, butter by 51.4%, confectionery products by 59.9%, vegetable oil by 57.2%, sugar by 24.0%, cheese by 2.5, canned meat by 2.4, fish products by 3.4, and frozen fish by 2.8 times [8].

In addition to implementing the above measures, we believe that it is important for farmers (personal assistants) who own small plots of land and livestock, together with regular producers of agricultural products, to create a mechanism for introducing innovations in farmers (personal assistants) farms by establishing a new form of production (association, association or cooperative).

However, their production is carried out on the basis of manual labor using low-yielding livestock and outdated equipment. Therefore, we believe that it is necessary to create methods of encouraging dehqan (personal assistant) farms in order to further develop the production of livestock products and fully satisfy the needs of our people in livestock products. Because, as we know, livestock does not produce products without fodder. Fodder is one of the main problems in dehqan (personal assistant) farms today. In order to increase the number of livestock in dehqan (personal assistant) farms, it is necessary to allocate sufficient arable land and pastures for them and provide opportunities to purchase various feeds (kunjara, shulkha, bran, etc.) to increase their productivity. For example, dehkan (private subsidiary) farms should be given the opportunity to purchase feed for livestock directly from feed producers, rather than through intermediaries (farms, agricultural enterprises or other state-owned enterprises). Then the prices of livestock products, including meat and meat products, milk and dairy products, in our markets today would be in line with the capabilities of consumers . We also believe that it is necessary to establish the processing of wool, which is currently considered the most valuable product in livestock farming.

References

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5199 dated October 9, 2017 “On measures to protect the rights and legitimate interests of farmers, dekhkan farms and homestead landowners, and to radically improve the system of effective use of agricultural land”. People's Voice October 10, 2017. and also the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-2460 dated December 29, 2015 “On measures to deepen and develop agricultural reform in 2016-2020”. People's Voice December 30, 2017.

2. Uzbekistan Republic The President of Uzbekistan In the Republic Decree No. PF-5264 of November 29, 2017 "On the Establishment of the Ministry of Innovative Development". People's Voice November 30, 2017.

3. of Uzbekistan . 4th volume. 179 pages.

4. A. Dyzhova "Osnovy upravleniya intellectualnoy sobstvennostyu". Mogilev- 20 1 7.- 117s.

5. BIKomiljonov “Improving innovative management methods” Textbook . 20 1 7 y.

6. Santo B. Innovation kak sredstvo ekonomicheskogo razvitiya: Per. s veng./ Obshch. ed. i input St. B. V. Sazonova. - M.: Progress, 202 1. - 296 p.

7. Abdullaev R.V., Khasandzhanov K.A. Innovative renewal of the economy - the basis of its modernization and competitiveness // Strategy for modernization of the economy: problems and ways to transition to innovative development. Collection of abstracts of the Republican scientific and practical conference . Tashkent, 20 2 1. –P. 24.

8. 12.Strategiya sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya agropromyshlennogo kompleksa Rossiyskoy Federatsii na period do 2020g. (nauchnye osnovy). Russian Academy of Sciences. M., 20 20 . URL: http://www.vniiesh.ru.

9. UMUmurzakov, AJToshbo yev , “Economics of Farms”. T:. Tashkent. 20 1 9 years.

10. Ushachev I. "Nauchnoe obespechenie gosudarstvennyx programm razvitiya selskogo hozyaystva Rossii". - M.: 20 22 . - 9 p.m.

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

XOTIN-QIZLAR MEHNATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY- IQTISODIY SAMARASI

F.X.Sirojiddinova
ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ЭФФЕКТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ТРУДА ЖЕНЩИН

Сирожиддинова Ф.Х.
АГПИ Педагогика и психология доцент кафедры

SOCIO-ECONOMIC EFFECT OF IMPROVING THE ORGANIZATION OF WOMEN'S LABOR

Sirozhiddinova F.Kh.
AGPI Pedagogy and Psychology Associate Professor's Department

Annotatsiya: *ushbu maqolada xotin-qizlar mehnatini tashkil etish iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, xotin-qizlar mehnatini tashkil etishning samaradorligini oshirish orqali umumiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimining samaradorligini oshirish, gender tengligi va diskriminatsiyaning oldini olish, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatga kirishini ta'minlashga imkon yaratishi, bunday imkoniyatlar xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga yanada jalb qilishi borasida fikrlar ilgari surilgan*

Kalit so'zlar*: mehnat, iqtisodiy faoliyat, samaradorlikni oshirish, resurslar, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy tenglik, mehnat bozori*

Аннотация*: в данной статье выдвигаются мнения о роли организации труда женщин в развитии экономики, повышении эффективности общей системы производства и оказания услуг за счет повышения эффективности организации труда женщин, предотвращении гендерного равенства и дискриминации, создании возможностей для обеспечения доступа женщин к экономической деятельности, дальнейшем вовлечении женщин в экономическую деятельность.*

***Ключевые слова**: труд, экономическая деятельность, повышение эффективности, ресурсы, социальное равенство, социальное равенство, рынок труда*

***Abstract:** This article puts forward opinions on the role of women's labor organization in economic development, increasing the efficiency of the overall production and service system by increasing the efficiency of women's labor organization, preventing gender equality and discrimination, creating opportunities to ensure women's access to economic activity, and further involving women in economic activity.*

***Keywords**: labor, economic activity, increasing efficiency, resources, social equality, social equality, labor market*

Kirish.((Introduction) Xotin-qizlar mehnatini tashkil etish iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Boshqa ishlab chiqarish resurslari bilan bir qatorda, xotin-qizlar mehnati ham iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatdagi roli jamiyatda ijtimoiy tenglikni yaratishga, o'zining moliyaviy va iqtisodiy holatini mustahkamlashga imkon beradi. Shu bilan birga, xotin-qizlar mehnatini tashkil etishning samaradorligini oshirish orqali umumiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimining samaradorligini ham oshirish mumkin.

Ushbu maqolada xotin-qizlar mehnatini tashkil etishning iqtisodiy samarasi tahlil qilinadi. Maqsad - xotin-qizlarning mehnat bozoridagi o'rni va ular uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali iqtisodiy rivojlanishning qanday samarali bo'lishini ko'rsatish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature reviyew) Xotin-qizlar mehnatini tashkil etishni takomillashtirishga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlar mavjud. Bularning ko‘pchiligi mehnat bozorida xotin-qizlarning ulushi, ish o'rinlari va imkoniyatlaridagi farqlarni o‘rganadi. Ushbu tadqiqotlar xotin-qizlar uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratish, mehnat bozoridagi diskriminatsiyani yo‘qotish, mehnat sharoitlarini yaxshilash kabi masalalarni qamrab olgan.

Masalan, S. Nurmuhammedova (2020) o‘z tadqiqotida xotin-qizlar mehnatini samarali tashkil etishning iqtisodiy jihatlarini yoritib, bunday tashkilotlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri haqida gapiradi. Shuningdek, uning tahlillariga ko‘ra, xotin-qizlarning mehnatga kirishi va iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish orqali jamiyatda ijtimoiy tenglikni yaratish va gender tengsizlikni kamaytirish mumkin. Tadqiqotda xotin-qizlar mehnat bozorida iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi asosiy kuchlardan biri sifatida ko‘rsatilgan. Xotin-qizlar ishlashga

kirishish bilan nafaqat o‘zlarining iqtisodiy holatini yaxshilashadi, balki jamiyatning umumiy ishlab chiqarish quvvati ham oshadi. Xotin-qizlar mehnatini samarali tashkil etish iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Tadqiqotda xotin-qizlar uchun mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratishning muhimligi ta’kidlangan. Gender tengligi va diskriminatsiyaning oldini olish, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatga kirishini ta'minlashga imkon yaratadi. Bunday imkoniyatlar xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga yanada jalb qiladi, bu esa o‘z navbatida jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashga olib keladi. S. Nurmuhammedova, ehtimol, xotin-qizlarning malaka oshirish va ta’lim olish imkoniyatlarini oshirishning iqtisodiy samaralarini ko‘rsatgan. Xotin-qizlar uchun kasbiy o‘qitish va malaka oshirish dasturlarining mavjudligi ularning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ta'lim darajasi yuqori bo‘lgan xotin-qizlar iqtisodiy faoliyatda samaraliroq ishlashadi. Tadqiqotda xotin-qizlar uchun mos ish sharoitlari yaratish muhimligini ta’kidlash mumkin. Bu o‘z ichiga bolalar parvarishi, mos ish vaqtlari va ish joylarining moslashtirilishini olishi mumkin. Shuningdek, xotin-qizlar uchun ish joylari tashkil etilishi va ish sharoitlari yaxshilanishi jamiyatdagi iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga olib keladi. Tadqiqotda xotin-qizlar mehnatini samarali tashkil etishning iqtisodiy samaralari aniq ko‘rsatilgan. Bunga iqtisodiy o‘sishning tezlashishi, mehnat unumdorligining oshishi, va ijtimoiy tenglikning ta’minlanishi kiradi. Xotin-qizlar mehnatini to‘liqroq va samarali tashkil etish jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Tadqiqotda xotin-qizlar mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, shu jumladan, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatga kirish darajasi va bu borada amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tahlil qilinadi. Statistik ma’lumotlar asosida, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatda ishtiroki oshgani yoki kamaygani haqida tahlillar olib boriladi.

Maqolalarda ko‘rsatilgan muhim jihatlardan biri – xotin-qizlar uchun mehnat bozoridagi imkoniyatlarning kengaytirilishi va malaka oshirish dasturlari orqali ishchi kuchining sifatini yaxshilashga urg‘u berilishi kerakligidir.

Ushbu maqola uchun tadqiqot metodologiyasi sifatida, asosan, quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Mavzuga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar, monografiyalar, maqolalar va xalqaro tajribalar o‘rganiladi. Bu usul orqali mavzu bo‘yicha mavjud bilimlar umumlashtiriladi va xotin-qizlar mehnatini tashkil etishning iqtisodiy samaralari haqida tahlil olib boriladi.

Davlat statistika organlarining xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki haqida berilgan statistik ma’lumotlar o‘rganiladi. Bu metod xotin-qizlar mehnatining iqtisodiy ahamiyatini aniqlashda yordam beradi.

Xotin-qizlar bilan intervyular va so‘rovlar o‘tkaziladi. Bu orqali xotin-qizlarning ish bilan ta’minlanish darajasi, mehnat sharoitlari va ishdan qoniqish darajasi haqida ma’lumotlar to‘planadi.

Tahlil va natijalar. (Analysis and results) Xotin-qizlar mehnatini samarali tashkil etishning iqtisodiy samarasi, birinchi navbatda, ishchi kuchining to‘liq va samarali ishlatilishiga bog‘liq. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatda ishtirokini oshirish, ular uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va ularni malaka oshirish kurslari bilan ta’minlash iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishi mumkin.

Xotin-qizlar mehnatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi masalalarga e’tibor qaratilishi kerak:

Xotin-qizlar uchun malaka oshirish va kasbiy o‘qitish dasturlari iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, chunki bu orqali ular raqobatbardosh bo‘lishi mumkin.

Xotin-qizlar uchun ish joylarini moslashtirish, xususan, ular uchun mos ish vaqtlarini ta’minlash, bolalar parvarishi va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olish, ularning ishga kirishini osonlashtiradi.

Mehnat bozorida gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilaydi.

Xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki haqida davlat statistika organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar turli xil ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qilishga yordam beradi. Ushbu ma’lumotlar odatda xotin-qizlar mehnatining umumiy miqdori, ularning iqtisodiy faoliyatga kirishi, ishga joylashish darajasi, ish joylaridagi tenglik va boshqa bir qator ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Quyida xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun davlat statistika organlarining ko'rsatkichlari bo‘yicha umumiy tahlil va ba’zi asosiy statistikalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Xotin-qizlar mehnat bozoridagi ishtiroki darajasi – bu xotin-qizlarning ishchi kuchidagi ulushini ko‘rsatadigan asosiy indikator hisoblanadi. O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki o‘zgarib turadi, ammo u odatda erkaklar bilan solishtirganda pastroq bo‘ladi. Masalan, 2020-yilgi statistikaga ko‘ra, xotin-qizlar mehnat bozorida jami ishchi kuchining taxminan **40-45%** ni tashkil etgan.

Xotin-qizlarning ishga joylashish darajasi, odatda, erkaklar bilan solishtirganda bir oz pastroq bo‘ladi. Xotin-qizlarning ishga joylashish darajasi turli omillarga,

jumladan, ta’lim darajasi, oilaviy holat va regionlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, ma’lum bir yilda O‘zbekistonda xotin-qizlar orasida ishsizlik darajasi erkaklarnikidan yuqori bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston statistikasiga ko‘ra, xotin-qizlar orasidagi ishsizlik darajasi 2021-yilda **9%** atrofida bo‘lgan.

Xotin-qizlar mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishlari uchun ta’lim darajasi muhim omil hisoblanadi. O‘zbekiston davlat statistika organlari ma’lumotlariga ko‘ra, xotin-qizlar orasida oliy ma’lumotga ega bo‘lganlarning ulushi oshib bormoqda. 2020-yilda O‘zbekistonda oliy ta’limga ega bo‘lgan xotin-qizlar jami ishchi kuchining **25%** dan ortig‘ini tashkil etgan. Bu, shuningdek, xotin-qizlarning malakasini oshirish va iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtiroki va ularning ish joylaridagi tenglik masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Xotin-qizlar erkaklarga nisbatan ba'zan pastroq maosh olishadi va yuqori lavozimlar uchun imkoniyatlar cheklangan. O‘zbekiston statistika ma’lumotlariga ko‘ra, xotin-qizlar ko‘proq yordamchi ish o‘rinlarida ishlashadi (masalan, o‘qituvchi, hamshira, sotuvchi va h.k.) va yuqori malakali ish o‘rinlariga nisbatan kamroq kirishadi.

Xotin-qizlar mehnat bozorida eng ko‘p ishlaydigan sohalar — ta’lim, sog‘liqni saqlash, xizmat ko‘rsatish, kichik biznes va savdo. Davlat statistikasiga ko‘ra, xotin-qizlarning eng ko‘p ishlaydigan sektorlari:

- **Ta’lim va ilmiy tadqiqotlar**: Xotin-qizlarning katta qismi o‘qituvchi va ilmiy tadqiqotchi sifatida ishlaydi.
- **Sog‘liqni saqlash**: Tibbiyot sohasida ham xotin-qizlarning ishtiroki katta. Shifokorlar, hamshira, tibbiyot xodimlari sifatida ishlaydigan xotin-qizlar soni yildan-yilga oshmoqda.
- **Xizmat ko‘rsatish va savdo**: Xotin-qizlarning ko‘pchiligi savdo, mehmonxona va turizm sohasida ishlaydi.

Xotin-qizlar uchun mehnat sharoitlari hamda ish haqi shartlari erkaklar bilan solishtirganda ba'zan noqulay bo‘lishi mumkin. Xotin-qizlar ko‘pincha oilaviy majburiyatlar, bolalar parvarishi yoki uy ishlarini bajarish kabi qo‘shimcha yuklar bilan ishlashadi. Buning natijasida ular ko‘proq moslashuvchan ish vaqtlari yoki masofaviy ish imkoniyatlariga muhtoj bo‘lishlari mumkin. Shu sababli, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish uchun mehnat sharoitlarini yaxshilash zarur. Xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faoliyatga kirishi, ularning malaka oshirish imkoniyatlari va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali jamiyatning umumiy farovonligini oshirish mumkin.

Bunday tadbirlar o‘z navbatida iqtisodiy barqarorlikka va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shadi.

Xulosa va takliflar.(Conclusion/Recommendations) Xotin-qizlar mehnatini samarali tashkil etishning iqtisodiy samaralari nafaqat jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘sishni tezlashtirishga ham yordam beradi. Mehnat bozorida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash, ularning malakasini oshirish va sharoitlarini yaxshilash jamiyatning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Xotin-qizlar mehnat bozorida faol ishtirok etishlari uchun ularning ta’lim, ish joylari, mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini yaxshilash zarur. Davlat statistika organlari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar orqali xotin-qizlar mehnatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilash mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra, xotin-qizlarning mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi, ularning malaka oshirishi va gender tengligini ta’minlash jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xotin-qizlar bilan intervyular va so‘rovlar o‘tkazish, ularning ish bilan ta’minlanish darajasi, mehnat sharoitlari va ishdan qoniqish darajasi haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, jamiyatdagi xotin-qizlarning iqtisodiy holatini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Quyidagi ma’lumotlar xotin-qizlar bilan o‘tkazilgan intervyular va so‘rovlar asosida umumiy tahlil va natijalarni ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni berish mumkin:

1. Xotin-qizlar uchun kasbiy o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish.
2. Mehnat bozorida gender tengligini ta’minlashga oid qonunlar va normativ hujjatlarni kuchaytirish.
3. Xotin-qizlar uchun ish joylarini moslashtirish, jumladan, mos ish soatlari va bolalar bog‘chalari tashkil etish.
4. Ijtimoiy himoya chora-tadbirlarini kuchaytirish, xotin-qizlarning o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. (References)

1. Nurmuhammedova, S. Xotin-qizlar mehnatini tashkil etishning iqtisodiy samaralari. Tashkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti. 2020 yil.
2. Gulyamova, M. Gender tengligi va mehnat bozorida xotin-qizlar ishtiroki. Toshkent: Jamiyat va huquq. 2019 yil.
3. Rahimov, A. Mehnat bozorida gender tenglikni ta’minlash. Toshkent: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. 2018 yil.
4. World Bank. Gender Equality and Labor Market Opportunities. Washington DC: World Bank Group. 2022 y.

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

CHET TILINI O'RGANISH HAMDA O'RGATISH METODIKASI.

Alimdjanova Shaxzoda Ilxomovna,
Filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi
5.23 Guruh talabasi
alimdjanovashaxzoda0@gmail.com
+998885332809

Annotatsiya: *Ma'lumki,bugungi kunda til o'rganish bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanib kelmoqda.Ijtimoiy hodisa hisoblanmish tilni tabiiy muhitda ya'ni oilada,jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash ham mumkin.Til hodisalalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganishni talab qiladi.Chet tilni o'rganish-o'rgatish muayyan jihatlari bilan ona tili va ikkinchi tildan farqlanadi.Shu tarzda insonlarning chet tilini o'rganish-o'rgatish metodikasiga oid fikr-mulohazalaridagi chalkashlikni bartaraf qilish,tegishli chet tilini o'rganish-o'rgatish metodikasini qo'llashni yoritib beradi.*

Kalit so'zlar:*tafakkur,ikkinchi til,umumta'limiy, chet tili,metodik sistema,ko'nikma,idrok,ta'lim usullari.*

Аннотация: *Известно, что сегодня изучение языка считается одним из важнейших направлений. Язык, который считается социальным явлением, может быть усвоен практически в естественной среде, т. е. В семье, среди общественности или в организованном порядке. Изучение и преподавание иностранного языка в некоторых аспектах отличается от родного языка и второго языка. Таким образом, чтобы устранить путаницу во мнениях людей о методологии изучения и преподавания иностранного языка, изучение соответствующего иностранного языка освещает применение методов обучения.*

Ключевые слова: *мышление, второй язык, общее образование, иностранный язык, методическая система, умения, восприятие, методы обучения.*

Annotation: *It is known that today language learning is considered one of the most important areas. Language, which is considered a social phenomenon, can be acquired practically in a natural environment, i.e. in the family, among the public or in an organized manner. requires. Learning and teaching a foreign language differs from the mother tongue and a second language in certain aspects. In this way, to eliminate the confusion in people's opinions about the methodology of*

learning and teaching a foreign language, to learn the appropriate foreign language illuminates the application of teaching methods.

Key words:*thinking, second language, general education, foreign language, methodological system, skills, perception, educational methods.*

Kirish

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qo'llanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul hamda uslub kabi o'zbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro so'z bo'lgan METODIKA atamasi qo'llangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika so'zidan foydalanamiz.Metodika tushunchasini o'rganishdan avval uning negizini tahlil qilib ko'rsak. Metod o'zi nima? Metod bu biror maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan yo'l, usuldir. Aslida, kundalik hayotimizda har sohada, har soniyada undan foydalanamiz. Misol uchun, har kuni ertalab darsga borishimiz kerak. Darsga borish bizning bosh maqsadimiz. Yo'lga chiqishdan avval darsga QANDAY qilib yetib olishimiz haqida o'ylaymiz. Avtobusda boramizmi yoki taksi olamizmi, balki piyoda borgannimiz ma’quldir. Demak birgina maqsadimizga uchta usulni qo'llashimiz mumkin bo'ladi. Asosiy maqsadning kichik qismlari ham borki, yuqoridagi misolda ko'rishimiz mumkin. Darsga tezroq borishimiz zarurmi, yo'l haqi qimmatga tushmasligi kerakmi yoki bosib o'tilajak yo'l salomatligimiz uchun foydali bo'lsinmi? Demak, maqsadga ko'ra eng kerakli va to'g'ri usulni tanlashimiz lozim bo'ladi. Chet tillarni o'qitishda ham, yuqoridagi misol kabi, maqsadga ko'ra turli metodlar asosida dars jarayonlari olib boriladi. O'qituvchining metod salohiyati qancha yuqori bo'lsa, ya’ni maqsadni to'g'ri qo'yib, unga mos metodni qo'llay olsa, dars maqsadi albatta amalga oshadi va o'quvchilar darsda o'rgangan bilimlaridan, unda orttirgan yangi ko'nikma va malakalardan mamnun bo'ladilar. Chet tilini o’qitish va o'rganish uchun ko'p soatli dars jaronida o'qituvchi va o'quvchilar minglab maqsadli jarayonlarni amalga oshirishi zarur bo'ladi. Demak, o'qituvchi va o'quvchi minglab metodlarni bilsa, qo'llay olsa, oldiga qo'ygan maqsadiga oson va muvaffaqiyatli oladi.Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tilllarni o’rganish shu bilan bir qatorda o’rgatish,ayniqsa,ko’p tillilik ulkan ahamiyat kasb etmoqda.O’zbekiston Respublikasida tahsil olayotgan o’quvchi va talabalar odatda 3 tilni o’rganishmoqda.“Idrokli yoshlarimizning ko’pchiligi uch til egasidir”[1,167]Bu tilllar ta’lim nazariyasida o’z nomlari bilan yuritiladi:ona tili,ikkinchi til hamda chet tili.

“Ona tili”tafakkur,ongimizning shakllanishida alohida xizmat ko’rsatadigan birinchi tildir.Ona tili so’zlari zaminida o’zlashtirilgan tushunchalar ikkinchi yoki chet til o’rganish chog’ida o’zga til so’zlarining tovush va yozuvdagi timsolida tasvirlanadi.Ona tili,ikkinchi til va chet tilda o’rganiladigan so’z(asal-мёд-honey)miqdor jihatidan uchta,ammo ular ifodasidagi tushuncha yagona:Ishchi asalarilar o’simlik gulidagi shirani organizmida qayta ishlash yo’li bilan hosil qilinadigan shirin suyuqlik.Til o’rganish ruhshunosligining yirik mutaxassisi,professor Boris Vasilyavish Belyayevniny “Chet tilda tafakkurni shakllantirish”ga doir ilmiy mulohhazasi nomaqbuldir[2,60] zero turli tilda ifodalangan fikr uyg’unligi kuzatiladi.**“Ikkinchi til”** haqida so’z yuritganimizda,unga boshqa millat vakillarida iborat qardosh tili sifatida qaraladi.Shunisi aniqki,til kishilarning bir-birlarini yaqindan bilishlari,hurmat-izzatlashlari,suhbatlashishlarida asosiy omil,bebaho vosita.O’rta hamda oliy o’quv bilim yurtlarida ta’lim oluvchilar uchun o’zbek tili bu ikkinchi til hisoblanadi.

“Chet tili” bu xorijiy mamlakat tili Respublikamizda G’arbiy Yevropa (ingliz,fransuz,nemis)tillari va Sharq(arab,turk,fors,xitoy)tillari o’qitilmoqda.Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda,chet tili esa sun’iy muhitda o’rganiladi.Chet tilidagi muloqot,asosan,darsda o’qituvchi rahbarligida kechishi lozim. Qayd etilgan muhokamadan shu ayon bo’ladiki,uchala til orasida chet tilni o’rganish-o’rgatish muayyan jihatlari bilan farqlanadi.Bundan kelib chiqadiki tegishli chet tilini o’rganish-o’rgatish metodikasini qo’llashni taqozo etadi. “Chet til o’rganish”metodik termini ushbu tilda gapirish,tinglab tushunish,o’qish va yozuv ko’nikma va malakalarini egallash demakdir. Chet til o’qitish metodi deyilganda chet til o’rgatishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi muallim va o’quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta’lim usullari yig’indisi” va “ta’limning yo’nalishi” ma’nolarida qo’llanadi. Birinchisi ta’lim nazariyasida jarayon metodlar ma’nosida ishlatilsa,ikkinchi ma’noda uni o’qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o’qitishninb"tarjima metodi”, “tog’ri metod”, “ongli-qiyosiy metod”, “an’anaviy metod”, “intensiv metod” va boshqalar hisoblanadi. Chet tillarni o’rgatish tarixiga oid ma’lumotlar ko’hna zamonlarga borib taqaladi. Turli tillarda so’zlashuvchi xalqlar o’zaro qo’shnichilik munosabatlari o’rnatilishi bilan bir paytda bir-birining tilini, u orqali urf-odatini, hayot tarzini o’rgana boshlashgan. Savdo va madaniy aloqalar jonlanishi tufayli chet tillarni amaliy va ta’limiy maqsadlarda o’rganish yo’lga qo’yila borgan. Qadimiy Suriya va Misr, Yunoniston va Rumoda madaniyat taraqqiyoti davrlarida o‘zga xalqlar tillarini o‘rga- nish odatga aylangan.O’rta asrlar adabiy yodgorliklari va

Yevropa tillariga kirib kelgan xorijiy so'zlar shundan dalolat beradiki, xalqlar o'zgalar tilini o'rganish borasida ajoyib tajribalar orttirganlar.

O'zbekistonda chet til o'qitish tarixi.

Dunyoning barcha burchagida bo'lganidek, O'zbekiston hududida ham, ona tilidan tashqari o'zga xalqlar tillarini bilish kishilar orasida qadimdan taomil bo'lgan. Birdan ortiq tilni bir yo'la bilish tarixi mukammal o'rganilmagan ijtimoiy ho- disaligi ma'lum. Biroq tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlardan aniqlanadiki, barcha zamonlarda chet tilni o'rganish ehtiyoji sezilib turgan. Buyuk mutafakkirlikning birinchi mezoni zullisonaynlik yoki ko'p tillilik (poliglossiya) hisoblanadi, oddiy xalqqa ham bu belgi xosdir. Bolalikdan o'zbeklar tojik tilini[3,345], tojiklar o'zbek tilini egallashi qadimdan an'ana bo'lgan.O'zbekistonda yashovchi xalqlar bir-birlari tillarini bilishgan, tillar ularni yaqinlashishlari omili, quda-andachilik sababchisi bo'lgan. O'zbek xalqi ma'nan va jisman baynalmilalligi sir emas.Shu sababli O'zbekistonda chet til o'qitish tarixi birmuncha tadqiq etilgan[4,67-119].Daniyalik ruhshunos K. Flagstad tugal metodik sistema yaratmagan bo'lsa-da, chet tillarni o'qitish metodikasi bilan astoydil shug'ullangan. O'z metodik e'tiqodini „Til o'rgatish ruhshunosligi"[5,122]asarida bayon etgan. O'qitish maqsadi tushunchasini K. Flagstad bevosita muhokama qilmaydi. Biroq uning mulohazalari tahlili shunday xulosaga yetaklaydiki, u chet tilni umumta'limiy yo'nalishda o'rgatishni ma'qul ko'radi.Ta'lim mazmuni masalalariga kelganda, K. Flagstad chet tilni bilim (axborot) olish uchun emas, balki estetik nuqtayi nazardan (oliftagarchilik ma'nosida) o'rganilishi tarafdori bo'lgan. Tanlanadigan matnlarning o'quvchilar qiziqishiga to'liq to'g'ri kelishi shart emasligini uqtiradi. Matnlar uchun sevgi, turmushga chiqish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, tug'ilish, tarbiyalanish, kambag'allik, boylik, kasallik kabi mavzularni tavsiya etadi.Ona tilining ishtiroki to'g'risida K. Flagstad to'g'ri metod tarafdorlarining fikriga (ona tilini qo'shmaslikka) qarshi chiqadi va qay me'yorda bu metoddan foydalanish tadbirlarini maslahat beradi, chunonchi, so'z ma'nosini ochishda tarjima vosita ekanligini tan oladi. Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: "kommunikativ didaktika metodi",

“madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi” va “mashqni tashkil qilish metodi” hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog’liq va bir-birini to’ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog’liq bo’lganligi sababli, chet til o’rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Kommunukativ didaktika metodinini qo’llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o’rganish natijasida o’zga mamlakat madaniyati ham o’zlashtiriladi. Chet til ta’limida kerakli bilimlarni egallash uchun “mashqni tashkil qilish texnologiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Barcha bilimlarni o’zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta’limida balki barcha soha bilimlarini o’zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o’rni beqiyosdir. Chet til o’rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so’ngi qadam, “mashq texnologiyasi”ga e’tibor qaratish muhim. Chet tilini o’rganish va o’rganish metodikasi haqida umumiy ma’lumot berishim mumkin. Chet tillari o’rganishning eng muhim qismi, ularning izohli lug’atlari yoki grammatikasi bilan boshlanadi. Bu tilni o’rganishda quyidagi metodikalar foydalaniladi:

1. **Grammatika:** Chet tilini o’rganishda grammatika darslari va qoidalarining tushunchalari katta ahamiyatga ega. Grammatika qoidalarini o’rganish yordamida gaplarni to’g’ri yozish va so’zlar orasida to’g’ri munosabatlarni o’rganish mumkin.
2. **Lug’at:** Chet tilini o’rganishda lug’atdan foydalanish juda muhimdir. So’zlarning ma’nosi va ularning qo’llanilishi haqida ma’lumot olish uchun lug’atdan foydalanish kerak.
3. **O’qish va yozish:** Chet tilini o’rganishda matnlar o’qish va yozishni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Matnlar o’qish orqali so’zlar va so’z birikmalarini tushunish, so’zlar orasida to’g’ri munosabatlarni aniqlash mumkin.
4. **Muloqot va tinglovchilik:** Chet tilini o’rganishda muloqot va tinglovchilik amaliyati ham juda muhimdir. Boshlang’ich darajada chet tillarida so’zlashib, tinglashib qolgan so’zlar va so’z birikmalarini tushunish uchun muloqot qilish va tinglovchilikni rivojlantirish kerak.

5. **Amaliy mashg'ulotlar:** Chet tilini o'rganishda amaliy mashg'ulotlar ham juda foydali bo'ladi. Gaplashib, yozib, tinglashib qolgan so'zlar va so'z birikmalarini ishlab chiqish orqali chet tilini rivojlantirish mumkin.

Chet tilini o'rganish uchun sabrli va istiqomatli bo'lish ham juda muhimdir. Amaliy mashg'ulotlar va har kuni bir oz mas'uliyatli bo'lishingiz sizning chet tilini tezroq o'rganishingizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afur G'ulom-Ko'p tilni bilishning xususiyati, "O'qituvchi"gazetasi.1965. -B.167.
2. Б.В.Беляев-Психология иностранным языком.1960 -Б.60
3. А.Ю.Якубовский.Тимур и его время-В книга "История народов Узбекистана",том 1,часть 7, глава 1 -Ташкент:Издательство АН УзССР, 1950 -Б.345.
4. R.A.Zaripova.Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma.-Tashkent: "O'qituvchi" gazetasi,1986. -B.119.
5. Chr.Flagstad.Psychologie Der Sprachpädagogik.Zeipzig u.Berlin,Verl,von B.G.Tuebner,1913. -B122.

ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 31
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

MUNDARIJA

1	**ОДНА МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРОЦЕССА СУШКИ ХЛОПКА-СЫРЦА В СЛОЕ** *Маматов Алишер Зулунович, Пардаев Хонимкул Норматович, Саитмуратов Улмасбек Нурулло угли*	**4**
2	**WAYS TO EFFECTIVELY USE ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE MANAGEMENT OF MEH MONASTERIES** *Normurodov Sarvar Norboy o'g'li, Xabibullayev Xurshidbek Maxmudjon o'g'li, Pulatov Baxtiyor Murod o'g'li, Ro'ziqulov Musulmon Ahmad o'g'li,*	**10**
3	**FRAZEOLOGIK IBORALARNING TEMATIK VA SEMANTIK TAHLILI VA O'ZBEK TILIGA BERILISH MUAMMOLARI.** *Samandarova Mukarram Bo'riyevna, Jo'rayeva Zamira Ishmuminovna, Eshpo'latova Go'zal Gayratovna*	**18**
4	**ДИПЛОМАТИЯ УЗБЕКИСТАНА В НАЧАЛЕ XXI ВЕКА: МЕЖДУ ВОСТОКОМ И ЗАПАДОМ** *Islomov Abdulaziz Latif o'g'li, Shariboev Abduraxmon Abduqodir o'g'li*	**23**
5	**YUZ IFODALARI YORDAMIDA VIRTUAL KLAVIATURANI BOSHQARISH UCHUN INTERAKTIV DASTURIY TA'MINOTNI ISHLAB CHIQISH VA SINOVDAN O'TKAZISH** *Dilmurodov Shoxjahon Sirojiddin o'g'li*	**33**
6	**НОВЫЙ ВЗГЛЯД НА ТЕКУЩУЮ СИТУАЦИЮ АКУШЕРСКИХ КРОВОТЕЧЕНИЙ НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ** *Матякубова С. А.,Олимова Н.Х*	**38**
7	**TASVIRLARNING SIFATINI BAHOLASHDA KVANT ALGORITMLARI** *G'aniyev Ubaydullaxon Ne'matxon o'g'li*	**47**
8	**СОДЕРЖАНИЕ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЕЙ ГЕНА ТИРЕОГЛОБУЛИНА ВО ФРАКЦИЯХ ДНК С РАЗЛИЧНОЙ ТРАНСКРИПЦИОННОЙ АКТИВНОСТЬЮ В КЛЕТКАХ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ ПРИ РАЗЛИЧНЫХ ОПУХОЛЯХ** *Кадырова Д.А. , Мирхамидова П., Шахмурова Г.А., Алимова Р.А*	**52**

9	**ИССЛЕДОВАНИЕ СОПОЛИМЕРИЗАЦИИ МОНОМЕРНЫХ СОЛЕЙ НА ОСНОВЕ N,N — ДИМЕТИЛАМИНОЭТИЛМЕТАКРИЛАТА И ЭФИРОВ ХЛОРУКСУСНОЙ КИСЛОТЫ С АКРИЛОНИТРИЛОМ** *Абдураимов Бахтияр Мавлянович, Исмаилов Бобурбек, Махмуджанович, Уразов Фируз Бахтияр угли, Йулдашов Жавохир Зиядулло угли*	**58**
10	**SAN'AT VA MADANIYAT SOHASIDA MUTAXASSISLARINING SHAXSIY KASBIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISH YO'LLARI** *Mamirov Mansur Mamirovich*	**66**
11	**PEDAGOGICAL FEATURES AND FACTORS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS** *Eshboyev Javlon Izzatullayevich*	**70**
12	**AMUDARYO HAVZASIDAGI MUZLIKLARNING DINAMIK HOLATINI MASOFADAN OLINGAN MA'LUMOTLAR YORDAMIDA TAHLIL QILISH** *O`ktamov Murodjon G`afur o`g`li*	**75**
13	**FOREST AREA MONITORING USING SENTINEL-2 VEGETATION INDICES AND SUPERVISED CLASSIFICATION.** *Muratov Sanjarbek Muxtorbek o'g'li, Fazilova Dilbarxon Shamuradovna*	**86**
14	**EXPANDING THE EFFICIENCY OF TOURISM SERVICES IN KARAKALPAKSTAN IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY** *Mariya Bekimbetova*	**97**
15	**TEACHING WITH GAMES: ANALYZING THE TECHNIQUE - LEARNING OR PLAYING** *Nasiba Jakbarova, Muslima*	**103**
16	**РЕЗУЛЬТАТЫ ИСПЫТАНИЙ ПРЕПАРАТА ROYZOLE SC ПРОТИВ ПАУТИННОГО КЛЕЩА НА ХЛОПЧАТНИКЕ.** *Туфлиев Нодирбек Хушвактович, Акромов Бахтияр Акмалович, Жалгасов Бахрам Абат улы*	**107**
17	**METHODS OF TEACHING THE TOPIC OF CIRCULAR MOTION IN PHYSICS IN A COMPREHENSIVE SCHOOL** *Tursınbaev Sabırbay Awesbaevich, Nsanbaev Makset Turdibaevich, Embergenova Nilufar Isak qızı*	**113**

18 **ЛАЛМИКОР МАЙДОНЛАРДА ТУРЛИ МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАРНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ.** 119
И.Ш.Маматкулов, А.С.Мураткасимов, Р.О.Қурбонов

19 **SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV JARAYONLARINING RIVOJLANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TASNIFI** 126
O'rinov Akmaljon, Sarvinoz Mamatojieva

20 **DEMOGRAPHIC SITUATION AND FACTORS AFFECTING POPULATION DECLINE IN UZBEKISTAN** 140
O'ralov Orzubek Xamza o'g'li, Nematullayev Bobur Qodirjon o'g'li

21 **ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ ЭФФЕКТА МАСШТАБА В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ** 148
Тухтасинова Дилдора Рахмонбердиевна, Сайдуллаева Дилёра Тухтасин кизи

22 **ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СТРАХОВУЮ СФЕРУ** 157
Туйчиева Шохсанамхон Абдухоликовна

23 **SOVET ITTIFOQI DAVRIDA O'ZBEKISTONDA MILLIY MUSTAQILLIK HARAKATLARI: QURBONLAR, QARSHILIKLAR VA MILLIY ISTIQLOL YO'LI** 168
Nurullayev Jasurbek Xayrulla o`g`li

24 **DEVELOPMENT OF SOFTWARE ALGORITHMS FOR ENERGY-EFFICIENT CONTROL OF THYRISTOR SOFT STARTERS OF INDUCTION MOTORS FOR COMPRESSOR UNITS OF TASHKENT THERMAL POWER PLANT (TashTPP)** 177
F.A. Akhmadaliev, Mirisaev A.A., A.O. Pulatov

25 **NORMAL HOLATDA VIZUAL CHAQIRILGAN POTENSIALLARNING YOSHGA OID XUSUSIYATLARI** 182
Shertoyeva Risliqoy Sirojiddin qizi, Mavlanova Sadbarxon Abdukarimovna

26 **METHODS FOR ENHANCING THE COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS** 192
Ismoilova Zarnigor Raximjon kizi

27 **DETERMINATION OF DOXORUBICIN IN HUMAN BLOOD PLASMA AND URINE USING AMPEROMETRY FOR ONCOLOGY PATIENTS** 201
A.A. Bakakhonov, L.T. Gaziev, Z.Z.Yakhshieva

28 **MODDIY NUQTANING ERKIN TUSHISHI HARAKAT QONUNIYATLARINI LAGRANJ FUNKSIYASI ORQALI TEKSHIRISH** 210
Salimov Sardor Samadovich, Abdiyxamidova Soniya Jamshid qizi

29 **AGRICULTURAL MANAGEMENT BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES** 213
Rasulova Mukhabat Tishabayevna
30 **XOTIN-QIZLAR MEHNATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY- IQTISODIY SAMARASI** 222
F.X.Sirojiddinova
31 **CHET TILINI O'RGANISH HAMDA O'RGATISH METODIKASI.** 228
Alimdjanova Shaxzoda Ilxomovna